


# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


3

21 635



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 213



Oilaviy korxonona

132



Unitar korxonona

6 271



Xususiy korxonona

21



Aksiyadorlik jamiyati

420



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-mart oylarida)





**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 1 269 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 174 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 213 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 156 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 84 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 77,1 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 22 605 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 990 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 635 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 572 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 226 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 191 taga yoki 86,5 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 302 tani tashkil etib, ulardan 294 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 28 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga yoki 2,0 martaga oshgan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

|                             | Jami | shundan:          |                   |
|-----------------------------|------|-------------------|-------------------|
|                             |      | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| Rossiya Federatsiyasi       | 52   | 41                | 11                |
| Qozog'iston Respublikasi    | 13   | 8                 | 5                 |
| Xitoy Xalq Respublikasi     | 52   | 29                | 23                |
| Qirg'iz Respublikasi        | 9    | 8                 | 1                 |
| Tojikiston Respublikasi     | 8    | 6                 | 2                 |
| Turkiya Respublikasi        | 42   | 16                | 26                |
| Hindiston Respublikasi      | 11   | 4                 | 7                 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 30   | 22                | 8                 |
| Singapur Respublikasi       | 4    | 2                 | 2                 |
| Eron Islom Respublikasi     | 5    | 2                 | 3                 |



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

|                   | Jami | shundan:          |                   |
|-------------------|------|-------------------|-------------------|
|                   |      | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| Namangan viloyati | 294  | 182               | 112               |
| Namangan shahri   | 96   | 57                | 39                |
| Mingbuloq         | 7    | 2                 | 5                 |
| Kosonsoy          | 28   | 20                | 8                 |
| Namangan          | 19   | 16                | 3                 |
| Norin             | 11   | 6                 | 5                 |
| Pop               | 28   | 18                | 10                |
| To'raqo'rg'on     | 14   | 8                 | 6                 |
| Uychi             | 18   | 14                | 4                 |
| Uchqo'rg'on       | 11   | 6                 | 5                 |
| Chortoq           | 26   | 15                | 11                |
| Chust             | 21   | 11                | 10                |
| Yangiqo'rg'on     | 15   | 9                 | 6                 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 97 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 32,7 %), Kosonsoy va Pop 28 tadan (9,5 %), Chortoq 26 ta (8,8 %), Chust 21 ta (7,1 %), Namangan 19 ta (6,5 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (32,8 %), Chust (8,0 %), Namangan, Uychi (6,7 %dan), Pop (6,4 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Kosonsoy (6,2 %), Uchqo'rg'on (6,1 %), Chortoq (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,0 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (30,8 %), Chortoq (9,2 %), Yangiqo'rg'on (8,1 %), Uychi (7,3 %), Chust (7,2 %), Norin (7,1%), Uchqo'rg'on (6,5 %), To'raqo'rg'on (6,0 %), Kosonsoy (5,9 %), Namangan (4,6 %), Pop (4,5 %), Mingbuloq (2,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,1 %), Uychi (7,3 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,6 %), Kosonsoy (6,4 %), Namangan (6,3 %), Chust hamda Uchqo'rg'on (5,6 %dan), Yangiqo'rg'on va Norin (5,3 %dan), To'raqo'rg'on (5,1 %), Mingbuloq (3,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar-mart oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan shahri (35,4 %), Yangiqo'rg'on (21,4 %), To'raqo'rg'on (14,3 %), Chust (5,9 %), Mingbuloq (4,7 %), Norin, Namangan, Uchqo'rg'on, Pop (3,6 %dan), Kosonsoy va Chortoq (2,4 %dan) tumanlari hissasiga tegishli. Uychi tumanida esa oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.